

JAMIyatda FARZAND TARBIYASINING O’RNI

Shirinboyeva Aziza Sayfullo qizi

SamDChTI akademik litseyi 1-bosqich talabasi.

O’zbekiston Volontyorlari Assotsiatsiyasi a’zosi

Kalit so’zlar: tarbiya, farzand, madaniyat, hurmat, mehnatsevarlik, oilaviy muhit.

Farzand tarbiyasi haqida gapisirishdan oldin tarbiya o’zi nima ekanligini bilishimiz zarur.

Xo’sh, tarbiya nima? Tarbiya-bu insonning qanday muhitda, qanday insonlar bilan ulg’ayganligini bildiruvchi belgidir. Farzand tarbiyasi har qanday jamiyatning asosiy poydevoridir. Chunki farzand – kelajak egasi, jamiyatni rivojlantiruvchi va uni davom ettiruvchi avloddir. Shuning uchun farzand tarbiyasi nafaqat oilaning, balki butun jamiyatning dolzarb masalasi hisoblanadi.

Tarbiyaning mohiyati va inson hayotidagi o’rni

Tarbiyaning mohiyati- insonni jamiyatga moslashgan, ma’naviy barkamol, axloqiy pok va bilimli shaxs sifatida shakllantirishdir. Tarbiya birinchi navbatda oila muhiti orqali shakllanadi. Chunki bola dunyoqarashini va hayotga bo’lgan qarashlarini dastlab oilada shakllantiradi. Ota-onaning o’z farzandiga qilgan har bir ta’siri, ular o’rnak qilib ko’rsatgan harakatlar, gapirgan so’zlari- bularning barchasi bolada insoniy fazilatlarning shakllanishiga sabab bo’ladi. Tarbiya bolaga hurmat, odob, mehr-muhabbat va insoniylik fazilatlarini singdiradi.

Oiladagi tarbiyaning roli

Oilaviy muhit farzand tarbiyasining bosh omili hisonlanadi. Sog’lom muhitda o’sgan bola doimo yaxshi fazilatlar egasi bo’lib yetishadi. Ota-onaning mehribonligi, ma’suliyatli va adolatli munosabati farzandni odobli, halol va ma’suliyatli qilib tarbiyalaydi. Shu sababli, ota-oni o’z farzandlariga nafaqat mehr-muhabbat ko’rsatishi, balki ularning axloqiy va ruhiy rivojlanishiga ham alohida e’tibor qaratishi lozim. Ta’lim muassasalarining farzand tarbiyasidagi o’rni

Maktab va ta’lim muassasalari farzand tarbiyasida ota-onadan keying eng muhim o’rin tutadi. Bu joylarda farzandlar bilim olish bilan birga, jamiyatda qanday yashashni, o’z tengdoshlari bilan muomala

qilishni va mehnatsevar bo’lishni o’rganadi. O’qituvchilarning qo’llab-quvvatlashi va to’g’ri yo’naltirishi farzandlarning o’ziga bo’lgan ishonchini orttiradi va ularga kelajakda maqsadlariga erishish uchun kuch beradi.

Jamiyatdagi tarbiyaning ahamiyati

Farzand tarbiyasi nafaqat oilaga, bakli butun jamiyatga bog’liq. Jamiyatning axloqiy va madaniy qoidalari, uning yosh avlodga ta’siri farzandlarning shaxs sifatida shakllanishiga katta ta’sir ko’rsatadi. Hurmat, birdamlik, mehnatsevarlik va odobli bo’lish-bu kabi fazilatlarni bolalar jamiyat orqali ham o’zlashtiradi. Shu sababli, jamiyatdagi har bir inson o’zini ma’suliyatli tutishi, bolalarga yaxshi o’rnak bo’lishi va ularga mehr bilan munosabatda bo’lishi zarur. Farzand tarbiyasi jamiyatning kelajagini belgilab beradi. Oiladagi mehribonlik, ta’limdagi bilim va tarbiya hamda jamiyatdagi sog’lom muhit farzandlarning har tomonlama rivojlangan shaxs bo’lib yetishishiga asos bo’ladi. Shunday ekan, har birimiz tarbiya masalasiga ma’suliyat bilan qarab, yosh avlodning barkamol bo’lib shakllanishi uchun hissa qo’shish kerak.